

O`ZBEKISTON VA FINLYANDIYADA SAYLOV TIZIMI



Xomidova Oyshaxonim Ulug`bek qizi

*Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik
fakulteti 3-bosqich talabasi
oyshaxonxomidova@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada O`zbekiston va Finlyandiyaning saylov tizimlari qiyosiy taqqoslanadi. Maqolada ikki davlatdagi saylov tizimlarining asosiy xususiyatlari, ularning tashkil etilishidagi farqlar va o`xshashliklar ochib beriladi. Saylov senzi, majoritar va proporsional saylov tizimlari tushuntirib beriladi. O`zbekistonning so`nggi yillardagi saylov islohotlari ko`rib chiqiladi. Shuningdek, saylov tizimlarining samarali ishlashini ta'minlashda xalqaro tajriba va o`zaro hamkorlikning o`rni muhimligi alohida ta'kidlanadi.

Kalit so`zlar: O`zbekiston, Finlyandiya, saylov tizimi, saylov senzi, proporsional, majoritar saylov, saylov qonunchiligi, siyosiy partiyalar, jamoat ishtiroki.

KIRISH

Saylov tizimi har bir davlatning demokratik jarayonlarini aks ettiruvchi eng muhim institatlardan biridir. Uning samarali ishlashini ta'minlash,adolatli va shaffof saylovlarni o'tkazish esa fuqarolarning siyosiy huquqlarini himoya qilishda, davlatning ichki va tashqi siyosatida muhim ahamiyatga ega. O`zbekiston va Finlyandiya kabi ikki davlatning saylov tizimlarini o'rganish, ular o'rtasidagi farqlarni va o`xshashliklarni aniqlash nafaqat siyosatshunoslikda, balki amaliy demokratik islohotlar sohasida ham katta ahamiyatga ega. O`zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin demokratik islohotlarni amalga oshirishda va saylov tizimini takomillashtirishda katta o'zgarishlarga yuz tutdi. Bu jarayonda saylov qonunchiligi, saylov komissiyalarining mustahkamlanishi va jamoat ishtirokining oshirilishi kabi muhim bosqichlar amalga oshirildi. Biroq, bu

jarayon hali ham rivojlanish bosqichida bo'lib, ba'zi sohalarda izlanish va islohotlarga ehtiyoj mavjud.

Finlyandiya esa, uzoq yillik demokratik tajribasi bilan dunyoda saylov tizimining yuqori standartlarini belgilovchi mamlakatlardan biridir. Uning saylov tizimi, fuqarolarning siyosiy huquqlarini amalga oshirishda shaffoflik, adolatlilik va ishonchlilik kabi asosiy tamoyillarga asoslanadi.

Saylov tizimining samarali ishlashi nafaqat davlatning ichki siyosatida, balki xalqaro maydonda ham uning demokratik rivojlanishini aks ettiradi. Shu bois, ushbu mavzuning bugungi kunda juda dolzarbdir. Chunki dunyodagi bir qator davlatlar, shu jumladan O'zbekiston, demokratik islohotlarni chuqurlashtirishga va saylov tizimini yanada takomillashtirishga intilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI, METODOLOGIYA VA NATIJALAR

Saylov huquqi eng muhim siyosiy huquqlardan biri bo'lib, u fuqarolarga nafaqat vakillik organlarini tashkil etish, balki bunday organlarga o'z vakillarini yuborish imkoniyatini ham beradi. Fuqarolar tomonidan Konstitutsiyada belgilab qo'yilgan o'z saylov huquqlarining hech qanday to'siqsiz amalga oshirilishi ularning davlat boshqaruvidagi ishtirokining eng muhim shakllaridan biri hisoblanadi.

1948-yfgi Butunjahon inson huquqlari deklaratsiyasining [1] 21-moddasi, 1966-yfgi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning [2] 25-moddasida erkin saylov huquqining amalga oshirilishi, erkin hamda chinakamiga ifoda etiladigan xalq irodasi hokimiyat va har qanday hukumat qonuniyligining asosi ekanligi va har bir shaxsning o'z davlatini boshqarishda bevosita yoki o'z vakillari orqali qatnashish huquqi yuqoridagi xalqaro hujjatlarda ta'kidlangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining [3] XXII bobi “Saylov tizimi” deb nomlanib, 128-129-moddalarda saylov tizimi tartibga solingan. Finlyandiya Konstitutsiyasining [4] II bobi 14-moddasida Finlyandiya fuqarolarining saylov va ishtirok etish huquqi belgilab qo'yilgan. Quyidagi jadval orqali ikkala davlatning Konstitutsiyasini o'rgangan holda saylov senzini, saylov tizimini, proporsional va ,majoritar saylov tizimini qiyosiy metoddan foydalananib tahlil qilamiz.

Saylov senzi – bu aktiv yoki passiv saylov huquqini amalga oshirish uchun o'rnatilgan shart va cheklovlar tizimi. Senzlar turli xil bo'lishi mumkin: jins, yosh, ijtimoiy va mulkiy, ma'lumotlilik darajasi, o'troq, fuqarolik va boshqalar.

1-JADVAL. Saylov senzlari bo'yicha qiyosiy taqqoslash

Davlat nomi	Finlyandiya	O'zbekiston
Yosh senzi	Saylov huquqi va prezidentlik uchun 18	Saylov huquqi 18 yosh va prezidentlik uchun 35

	yoshdan	yosh
Fuqarolik senzi	Faqat Finlyandiya fuqarolari ishtirok etadi	Faqat O’zbekiston fuqarolari ishtirok etadi
O’troq senzi	Saylovdan kamida 51 kun oldin ro’yxatdan o’tgan bo’lishi kerak	Saylovchilarning doimiy yashash joyi bo’yicha ro’yxatga olinishi kerak
Huquqiy cheklovlar	Sud tomonidan muomilaga layoqatsiz deb topilgan shaxslar ovoz berolmaydi	Sud tomonidan ozodlikdan mahrum qilingan, muomalaga layoqatsiz shaxslar sud hukmi bilan ovoz berolmaydi

Saylov tizimining ikki xil turi mavjud bo’lib, ularning biri majoritar saylov tizimi, ikkinchisi esa proporsional saylov tizimi. **Majoritar saylov tizimi** – lotincha “ko’pchilik” degan ma’noni bildirib, bu saylovchilarning ovoz berish natijalariga asoslanib, saylovida g’olib bo’lish uchun ko’p ovoz to’plagan nomzodning g’olib deb e’lon qilinadigan saylov tizimidir. Biroq bu tizimda kichik partiylar va nomzodlar uchun imkoniyatlar cheklangan, chunki eng ko’p ovoz to’plagan nomzod g’olib bo’ladi, bu esa ko’p hollarda ko’p partiyalri tizimlardaadolatsiz natijalar olib kelishi mumkin. Keng jamoatchilik yoki aholi guruhlarining ehtiyojlari va manfaatlari yaxshi aks ettirilmaydi. Majoritar tizim ko’plab davlatlarda, jumladan, O’zbekiston, Buyuk Britaniya, AQSh, Hindiston va boshqalar.

Proporsional saylov tizimida esa, saylovchilar shaxslarga emas, siyosiy partiyalarga ovoz beradi. Saylovdan so’ng, qaysi partiya qancha ovoz olganiga qarab, deputatlik o’rniali taqsimlanadi va partiylar o’sha o’rinlarga deputatlar ro’yxatini o’zlari tasdiqlaydi. Masalan, qaysidir partiya saylovida 40% ovoz olsa, demak 75 ta deputatlik o’rnining 40 foizini, ya’ ni 30 nafar deputatni tasdiqlash huquqini qo’lga kiritadi. Yoki aksincha qaysidir partiya aytaylik jami 8% ovoz olsa, unda o’sha partiya 6 nafar deputat ro’yxatini beradi. Proporsional tizim ko’pincha koalitsiya hukumatlariga olib keladi, bu esa siyosiy muvozatni saqlashga yordam beradi. Ba’zida bu hukumatlar barqaror bo’lmasligi mumkin. **Proporsional saylov tizimi** ko’plab davlatlarda, xususan, Finlyandiya, O’zbekiston, Germaniya, Shveytsariya, Ispaniya, Braziliya va boshqa mamlakatlarda qo’llaniladi. Bu tizim demokratiyaning kengroq vakillikni

“TOP IZLANUVCHI - 2025” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

ta'minlashga xizmat qiladi va fuqarolarga o‘z siyosiy xohishlarini yanada aniqroq ifoda etish imkonini beradi.

2-JADVAL. *Finlyandiya va O‘zbekiston saylov tizimining qiyosoy tahlili*

Farqlanuvchi jihatlari	Finlyandiya	O‘zbekiston
Saylov tizimi	Ochiq ro'yxatli proporsional tizim	Majoritar va proporsional tizim (aralash)
Parliament saylovi	Har 4 yilda 1marta	Har 5 yilda 1marta
Prezident saylovi	To'g'ridan-to'g'ri ovoz berish, 2 bosqichli tizim	To'g'ridan to'g'ri ovoz berish 1 bosqichli
Mahalliy saylovlari	Har 4 yilda 1marta	Har 5 yilda 1marta
Saylov natijalarini aniqlash	D'Hondt usuli orqali proporsional taqsimlanadi	Nomzod eng ko'p ovoz olsa , g'alaba qozonadi.
Siyosiy partiylar soni	Ko'p partiyaviylik tizimi mavjud	5ta siyosiy partiya mavjud
Saylov komissiyasi mustaqilligi	Mustaqil va shaffof saylov komissiyalari faoliyat yuritadi	Mustaqil va shaffof saylov komissiyalari faoliyat yuritadi
Xalqaro kuzatuvchilar	Yevropa Ittifoqi va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan kuzatib boriladi	Mustaqil xalqaro kuzatuvchilar taklif etiladi

MUHOKAMA

O‘zbekiston va Finlyandiya saylov tizimlarini taqqoslash, ikki mamlakatdagi siyosiy jarayonlar va demokratik islohotlarning farqlarini, shuningdek, ularning saylov tizimlarining samaradorligini tushunishga yordam beradi. Har ikki davlatda saylov tizimlarining asosiy maqsadi fuqarolarning siyosiy ishtirokini ta'minlash, hukumatni demokratik ravishda shakllantirish va jamiyatda siyosiy barqarorlikni saqlashdir. Biroq, saylov tizimlari va ular orqali amalga oshirilgan siyosiy jarayonlar o‘rtasida sezilarli farqlar mavjud.

Saylov tizimining farqlari va ular ta'siri:

Finlyandiya ochiq ro'yxatli proporsional tizimdan foydalanadi, bu tizimda partiylar va nomzodlar saylovchilar tomonidan aniq tanlanadi va saylovchilar ko'proq siyosiy ko‘p turli xil partiyalarni qo'llab-quvvatlash imkoniyatiga ega. Bu, odatda, saylov tizimida keng vakillik va fuqarolarning siyosiy ishtirokini

oshiradi. Shuningdek, Finlyandiya tizimi koalitsion hukumatlarni tashkil etish uchun imkon yaratadi, bu esa siyosiy raqobatni kuchaytiradi va hukumatdagi qarorlar ko'proq turli fikrlarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston esa aralash saylov tizimini qo'llaydi, bunda majoritar va proporsional tizimlar birlashadi. Bu tizimda, ba'zi saylovchilar eng ko'p ovoz to'plagan nomzodga ovoz beradi, boshqa saylovchilar esa partiyalarni tanlaydi. Majoritar tizimning qo'llanilishi ba'zan saylov natijalarini ba'zi partiylar yoki nomzodlar uchun foydali qiladi, bu esa siyosiy raqobatni ba'zan cheklaydi va ayrim siyosiy kuchlar uchun noteng vakillikni ta'minlashi mumkin.

Prezident saylovlari va parlament tizimlari:

Finlyandiyada prezident saylovlari ikki bosqichli tizimda amalga oshiriladi, bu esa saylovchilarga yanada kengroq tanlov imkoniyatlarini beradi. Prezidentning to'g'ridan-to'g'ri saylanishi esa xalqning siyosiy ishtirokini oshirishga xizmat qiladi. Boshqa tomondan, O'zbekistonning bir bosqichli prezident saylovi tizimi tez va aniq natijalarini beradi, lekin bu ba'zida saylov jarayonidagi raqobatni kamaytirishi mumkin.

O'zbekiston parlament saylovlari majoritar tizimni o'z ichiga olgan aralash tizimga asoslangan, bu ba'zi siyosiy partiyalarning siyosiy maydonda nisbatan kichikroq vakillikka ega bo'lishiga olib keladi. Finlyandiya, o'zining proporsional tizimi orqali ko'proq siyosiy partiyalarni va ularning vakillarini parlamentga joylashtiradi, bu esa hukumatda turli fikrlarni va qarorlarni aks ettirishga imkon beradi. Finlyandiya tizimi ko'proq koalitsion hukumatlarni ta'minlaydi, bu esa siyosiy barqarorlikni saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Saylov komissiyalari va xalqaro kuzatuvchilar:

Har ikkala mamlakatda ham saylov komissiyalari mustaqil va shaffof faoliyat yuritadi, bu esa saylov jarayonining ishonchlilagini oshiradi. Biroq, Finlyandiya saylovlarini xalqaro tashkilotlar tomonidan kuzatilsa, O'zbekistonda mustaqil xalqaro kuzatuvchilar taklif etiladi. Bu farq, O'zbekistonning xalqaro e'tiborini o'ziga jalb qilish va saylov tizimining shaffofligini ta'minlashda muhim rol o'ynashi mumkin. O'zbekiston saylov tizimida mustaqil xalqaro kuzatuvchilarining ishtiroki saylov jarayonining adolatliligi va shaffofligini tekshirishda foydali bo'lishi mumkin.

Siyosiy partiylar soni va koalitsiyalar:

Finlyandiya ko'p partiylari tizimga ega bo'lib, bu siyosiy maydonda ko'plab partiylar va siyosiy qarashlarning ifodalishini ta'minlaydi. Shuningdek, koalitsiyalar tashkil etilishi va qarorlar ko'proq demokratik munozara asosida qabul qilinadi. O'zbekistonda esa partiylar soni nisbatan kamroq bo'lib, siyosiy maydonda raqobat cheklangan bo'lishi mumkin. Bu, ba'zida, hukumatga nisbatan

raqobatni cheklashi va partiyalarning o'zgarishlarga moslashish imkoniyatlarini kamaytirishi mumkin.

XULOSA

O'zbekiston va Finlyandiya saylov tizimlarining farqlari ularning siyosiy tizimlariga va demokratik institutlariga ta'sir qiladi. Finlyandiya tizimi fuqarolar ishtirokini oshiradi, siyosiy partiyalar sonini ko'paytiradi va hukumatda koalitsiyalarning tashkil etilishiga imkon beradi. Boshqa tomondan, O'zbekistondagi aralash saylov tizimi ba'zan siyosiy raqobatni cheklashi mumkin, ammo tizimning yutuqlari ham mavjud, masalan, saylov natijalarining tezroq aniqlanishi. Shu bilan birga, har ikkala davlatda ham saylov komissiyalarining mustaqil va shaffof faoliyati saylovlarning ishonchlilagini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston uchun saylov tizimini yanada demokratiklashtirish, fuqarolarning siyosiy ishtirokini kengaytirish va siyosiy raqobatni oshirish muhim ahamiyatga ega. Bu borada Finlyandiya tizimi o'zining samaradorligi va demokratik yondashuvlari bilan O'zbekistonga ba'zi takliflar va tavsiyalarni taqdim etishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi

URL: <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>

2. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi pakt

URL: <https://lex.uz/docs/-2640479>

3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi

URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>

4. Finlyandiya Respublikasi Konstitutsiyasi

URL: <https://www.constituteproject.org/>

5. Xorijiy mamlakatlardan konstitutsiyaviy huquqi. 2023 pdf.

URL: <https://drive.google.com/file/d/10ZtjStSJFhTfxQtetxLj6u819mC3Lq/vie>

6. Finlyandiya konstitutsiyasi.2024.pdf

URL:

https://drive.google.com/file/d/1pJtTvK0fms_OCKANbmf98vwwu9isE